

Respublika “Kitob bayrami”



PRESS-RELIZ

“Adabiyotga e'tibor - kelajakka, ma'naviyatga e'tibor” shiori ostida “**KITOB BAYRAMI**” ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbir 2016 yilning 26-28 may kunlari O'zbekiston matbuot va axborot agentligi va bir qator tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasida hamda viloyat markazlarida o'tkaziladi.

Respublika “Kitob bayrami”da 150dan ziyod nashriyot va matbaa korxonalari ishtirok etishi mo'ljallanmoqda.

Mazkur ma'naviy tadbirni tashkil etishning bosh maqsadi quyidagilardan iborat:

- O'zbek adabiyoti orqali xalq ma'naviyatini yuksaltirish, hamda adabiyotga, ma'naviyatga, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ulug'lashga davlat darajasida berilayotgan e'tiborni keng jamoatchilikka yaqindan yetkazish;
- Yosh avlodning ongu shuuriga milliy mustaqillik g'oyalarini singdirish va Ona - Vatanga yuksak sadoqat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shish;
- Yoshlarni intellektual rivojlangan va ma'nani barkamol qilib voyaga yetkazishda kitobning o'rni va ahamiyatiga va kitob mutolaasi madaniyatiga e'tiborini kuchaytirish;
- Aholining, ayniqsa yoshlarning milliy adabiyotimizga va jahon adabiyoti durdonalariga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda oilaviy kitob o'qish an'analarini targ'ib qilish, yozuvchi va kitobxon o'rtaсидagi muloqotni kuchaytirish kabilardir.

Respublika “Kitob bayrami”ning Bosh ochilish marosimi 2016 yil 26 may soat 10.00da Toshkent shahrining G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida bo'lib o'tadi, maydoni qariyb 23 hektar.

G'G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'i “Kitob bayrami” munosabati bilan mutafakkir olim va shoirlarning bilim va ma'naviy yuksaklikka erishishning eng asosiy manbai bo'lmish kitobni, kitobxonlikni targ'ib qiluvchi:

- “Ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qilish har bir ziylanining vijdon ishidir” I.Karimov;
- Respublika “Kitob bayrami”ga xush kelibsiz!
- Xalqimizning yaxshi fazilatlaridan biri uning kitobga bo'lgan ehtiromidir kabi 45 dan ziyod hikmatli so'zları yozilgan pannolar bilan bezatiladi.

“Kitob bayrami” tantanalari karnay va surnay sadolari bilan boshlanadi.

“Kitob bayrami”ning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, Mahalla” xayriya jamoat

fondi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Respublika Markaziy kengashi hamda boshqa hamkor vazirlik va tashkilotlar vakillari hozir bo‘ladilar.

Ochilish marosimida Agentlik Bosh direktori amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jahon e’tirof etayotgan ulkan muvaffaqiyatlar, xususan milliy ma’naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug‘lashga, halqimizning, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy yuksalishiga davlat darajasida berilayotgan yuksak e’tibor hamda xalqimizning yaxshi fazilatlaridan biri - uning kitobga bo‘lgan ehtiromi ekanligi haqida hamda “Kitob bayrami”ning mazmun-mohiyati, maqsadi, ishtirok etayotgan nashriyotlar, rejalashtirilgan tadbirlar to‘g‘risida qisqacha ma'lumot berib, bayram ishtirokchilarini qutlaydi.

Shundan so‘ng bayramning asosiy tadbirlari boshlanadi.

Bayramga taklif etilgan faxriy mehmonlar tashkilotchilar bilan birqalidagi nashriyotlar ko‘rgazmalari bilan tanishadilar. Tanishuv jarayonida ishtirokchi nashriyotlar o‘z faoliyatları haqida qisqacha ma'lumotlar beradilar.

Tanishuv tugagach, G‘afur G‘ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog‘ining (“Ma’naviyat, ma'rifatni targ‘ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir” I.Karimov va “Kitob - beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksaklikka erishishning asosiy manbai” A.Navoiy) hikmatli so‘zlar bilan bezatilgan bosh sahnasida Madaniyat va sport ishlari vazirligi va “O‘zbeknovo” estrada birlashmasi tomonidan jalb etilgan san'atkorlar, turli tanlovlardan g‘oliblari bo‘lgan yosh iqtidor sohiblari kuy va qo‘shiqlari va Respublika Cholg‘u orkestri ijrosida milliy mumtoz musiqa namunalari tuzilgan konsert dasturi namoyish etiladi.

Kunning ikkinchi yarmida bayramning “Kitobsevarlarni qutlaymiz!” nomli badiiy qismi boshlanadi. Unda bog‘ning ikki sahnasida yosh iste'dod sohiblari, shuningdek, “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi ijodiy guruhlarining chiqishlari rejalashtirilgan.

Badiiy qismda Respublika yosh tomoshabinlar teatri va Respublika qo‘g‘irchoq teatrining hamda turli bolalar san'at guruhlarining chiqishlari ham uyushtiriladi.

“Kitob bayrami”ga kelgan poytaxt aholisi va mehmonlari Agentlik tizimidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylari hamda sohada faoliyat yuritayotgan yetakchi nashriyotlar tomonidan tashkil etilgan ko‘rgazma stendlarni tomosho qiladilar. Shu bilan birga bog‘ning turli joylariga o‘rnatilgan telemonitorlarda nashriyotlar faoliyatini aks ettiruvchi hamda kitobxonlik madaniyatini targ‘ib etishga bag‘ishlangan viyedolavhalar namoyish etib turiladi.

G‘afur G‘ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog‘ining eng ko‘rinarli joyida “O‘zbekiston” matbaa-ijodiy uyi tomonidan tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti kitoblarining maxsus stendi o‘rnatiladi. Unda bayram ishtirokchilari davlatimiz rahbarining so‘nggi yillarda nashr etilgan asarlari bilan bevosita tanishish va noshirlar, kitob dizaynerlari bilan suhbatlarda bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu bilan birga respublikamiz nashriyotlari tomonidan chop etilib, so‘nggi yillarda turli xalqaro nufuzli kitob ko‘rgazmalarida sovrinli o‘rnlarni qo‘lga kiritgan, O‘zbekiston noshirlari va matbaachilarining bugungi ijodiy imkoniyatlari va texnik salohiyatlarini ko‘rsatadigan ilmiy-ommabop, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy va bolalar hamda o‘smirlarga mo‘ljallangan kitoblarni namoyish qiluvchi 70 ga yaqin ko‘rgazma-stendlar tashkil etiladi.

Nashriyotlar tomonidan bayram ishtirokchilariiga oilaviy kitob o‘qish an'analarini targ‘ib qilish maqsadida “Bolalarga kitob o‘qishga mehr uyg‘otishda ota-onalarga maslahatlar” nomli flayerlar taqdim etiladi hamda “Kitob o‘qishni yoqtirasizmi?” mavzuida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazadilar.

Bu bilan bir qatorda bayram doirasida o‘quvchi bilan adiblarning bevosita muloqotlariga alohida o‘rin berilgan bo‘lib, nashriyotlar taklif etgan taniqli adib va shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlar, mushoiralar o‘tkazadilar.

Istirohat bog‘ining turli hududlarida tashkil etilgan maxsus maydonchalarida bayramga tashrif buyurganlar uchun:

- nashriyotlarning yangi kitoblari taqdimotlari;
- kitob mualliflari, adib va shoirlar, kitob grafikasi bo‘yicha rassomlar, muharrirlar bilan ijodiy uchrashuv va suhbatlar;
- “Eng yaxshi kitobxon”, “Kitobxon oila” kabi mavzularga oid sovrinli intellektual o‘yin va viktorinalar;
- “Kitob o‘qishni yoqtirasizmi?” mavzuida ijtimoiy so‘rovnoma;
- “Bolalarga kitob o‘qishga mehr uyg‘otishda ota-onalarga maslahatlar” nomli flayerlar tarqatiladi.

Bog‘ning bosh sahnasida Xalq ta’limi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari tomonidan tadbirga jalb etilgan maktablar o‘quvchilari, oliy ta’lim muassasalari talabalari tomonidan ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga molik bo‘lgan mumtoz va zamonaviy asarlar asosida tayyorlangan sahna ko‘rinishlari namoyish etiladi.

“Kitob bayrami” doirasida mushoiralar, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining ijodiy uchrashuvlari ham o‘tkaziladi.

“Kitobdan yaxshi do‘sit bo‘lmas”, “Odamiylik kitobga bo‘lgan ehtiromdan boshlanadi”, “Kitobga mehr qo‘ysangiz, u sizni albatta munosib taqdirlaydi”, “Mening birinchi kitobim”, “Kitob - eng yaxshi sovg‘a” mavzularida intellektual viktorinalar tashkil etilib, g‘oliblarga kitoblar, bayram logotipi tushirilgan mayka va kitoblar taqdim etiladi.

Bayramda kitob grafikasi va miniatyura janrida ijod qilayotgan yosh rassomlarning ijodiy ko‘rgazmalari ham uyuştiriladi.

Respublika “Kitob bayrami”ning ikkinchi kuni, ya’ni 27 may kuni soat 9.00da O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining 100 kishilik majlislar zalida “Kitob - millatning bebaho madaniy va ma’naviy merosi” mavzuida IV ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tadi. Ushbu konferensiyaning tashkilotchilari - Matbuot va axborot agentligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika Ma’naviyat va targ‘ibot markazi va “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatidir.

Mazkur anjumanda jumladan:

- Noshirlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy asoslari;
- Noshirlik ishi: mohiyat va mas‘uliyat”
- Bolalar adabiyotini nashrga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari;
- Barkamol avlodni tarbiyalashda kitobning o‘rni kabi mavzular muhokama qilinadi.

G‘afur G‘ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog‘ida birinchi kun ssenariysiga muvofiq (ochilish marosimidan tashqari) bo‘lib o‘tgan tadbirlar takrorlanadi.

Respublika “Kitob bayrami” doirasida erkin kitob savdosini o‘tkazish ham rejalashtirilgan.

Bayramga 10 mingdan ziyod taklifnomalar tayyorlab taqatilishi va OAVda keng yoritilishi rejalashtirilgan.

Bayramning ikkinchi kuni “Bunyodkor” yoshlari telekompleksi orqali “Kitob bayrami”ning Toshkent shahri va hududlarda o’tkazilish kunlari tadbir ishtirokchilarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti ham o’tkaziladi.

Bayramning uchinchi kuni “Yilning eng yaxshi kitobi” va “Namunaviy kitob do‘koni” respublika ko‘rik-tanlovlarini e’lon qilinadi.

Eslatma: Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda bo‘lib o‘tadigan Respublika “Kitob bayrami” ssenariylari alohida tuzilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari tomonidan tasdiqlanadi va o’tkaziladi.